

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

SOATOV ELMUROD MAXMARAYIMOVICH

**TALABALARDA KURASH BO‘YICHA AMALIY KO‘NIKMALARNI
RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv
jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Soatov Elmurod Maxmarayimovich

Talabalarda kurash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish
mexanizmlarini takomillashtirish 3

Соатов Элмурод Махмарайимович

Совершенствование механизмов развития у студентов практических
умений по курашу 27

Soatov Elmurod Makhmarayimovich

Improving the mechanisms of developing practical kurash skills for students 53

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 57

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

SOATOV ELMUROD MAXMARAYIMOVICH

**TALABALARDA KURASH BO‘YICHA AMALIY KO‘NIKMALARNI
RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv
jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Ped4397.raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Chirchiq davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.jtsiti) va “Ziyonet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbarlar:

Xurvaliyeva Tarmiza Latipovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Xolmurodov Laziz Zarifboyevich
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Mardanov Shukurullo Kuldashevich
pedagogika fanlari doktori, professor

Xamidjonov Abdulaziz Usubjon o‘g‘li
pedagogika fanlari doktori (DSc)

Yetakchi tashkilot

Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti huzuridagi DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01. raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “_____” _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19-uy. Tel: (0-370)-717-17-79, 717-27-27, faks:(0-370) 717-17-76, veb-sayt: www.uzjtsiti.uz, e-mail: uzdjtsu@uzdjtsu.uz. O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti “A” bino 1-qavat, 114-auditoriya).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19-uy).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “_____” _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil “_____” _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

F.A.Kerimov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor

X.X.Qurbonov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, p.f.b.f.d. (PhD)

O.J.Dadabayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, p.f.d. (DSc), professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo miqyosida kurashning tobora rivojlanib borayotganligi, musobaqa qoidalariga kiritilayotgan o'zgartirishlar, sportchilarni tayyorlash tizimi mukammallashib hamda takomillashib bormoqda. Xalqaro sport maydonlarida sportchilarning raqobatbardoshligini oshirish, talaba-yoshlar orasidan iqtidorli kurashchilarni saralab olish va mashg'ulot jarayonini samarali tashkil qilishda kompleks nazorat ilmiy ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bugungi kunda talaba-sportchilar tayyorgarlik tizimining har bir bosqichidan samarali foydalanish hamda o'zgaruvchan mashg'ulot shakllari, usullari va vositalaridan maqsadli foydalanish jahon hamjamiyati soha olimlari oldida turgan asosiy masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Jahon miqyosida kurash turlari rivojlangan mamlakatlar olimlari tomonidan sportchilarning texnik-taktik jihatlarini har tomonlama o'rganish, ularning jismoniy, psixologik va funksional natijalarini yaxshilash bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Jismoniy tarbiya va sport sohasida to'plangan uzoq yillik nazariy-amaliy tadqiqotlar asosida tayyorgarlik bosqichlari bo'yicha mashg'ulotlarni ishlab chiqishga asoslangan majmuaviy usullar hamda ularni nazorat qilish imkoniyatlari amaliyotga tadbiiq etilmoqda. Talaba-kurashchilar bilan olib boriladigan mashg'ulot jarayonlarini muvofiqlashtirish turlarini kengayib borayotganligiga qaramasdan, uning usullarini tayyorgarlikni turli bosqichlarida harakat faoliyatini oshirish hamda texnik tayyorgarlikni takomillashtirish bo'yicha aniq taklif va tavsiyalar yetarlicha ishlab chiqilmagan. Kurashchilarni ko'p yillik tayyorgarlik bosqichlarida mashg'ulot va musobaqa yuklamalari hajmi hamda shiddatining oshishi o'quv-mashg'ulotlarni olib borishda hamda kurash bo'yicha amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishda yangi yo'llarni va foydalanilmagan zaxirani izlab topishga qaratilgan mexanizmlari yetarlicha ochib berishni taqozo etmoqda.

Mamlakatimizda qadimiy qadriyatlarimiz, xususan mardlik, jasurlik, vatanparvarlik, oliyanoblik g'oyalarini o'zida mujassam etgan milliy sportimiz bo'lgan kurashni ommalashtirish bo'yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. "Yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish"¹ kabi vazifalar belgilangan. Hozirda, kurashchilarni jismoniy tayyorgarligi, funksional holatini yaxshilash hamda texnik harakatlarga o'rgatish samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirish turlicha ko'rinish olmoqda. Bu borada kurashni xalqaro miqyosidagi mavqeyini oshirish, sport zahiralari va milliy terma jamoasini shakllantirish, yosh sportchilarni saralash va yo'naltirish bo'yicha davlat darajasida kompleks chora-tadbirlar ko'rishni taqozo qilmoqda. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, talaba-kurashchilarda jismoniy va funksional tayyorgarlik darajasini oshirish, ularning har tomonlama tayyorgarligini aniqlab berishga qaratilgan zamonaviy vosita va usullarni

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 20 dekabrda PQ– 50-son "Kurash milliy sport turini rivojlantirish va ommalashtirishni yangi bosqichga olib chiqish" to'g'risida"gi Qarori. www.Lex.uz

mashg'ulot jarayonlariga olib kirish hamda kurash bo'yicha amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha zahira sportchilarni tayyorlash tizimini pedagogik jihatdan ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chiqish soha olimlari va mutaxassislari oldida turgan muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-son "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni, 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-son "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 4-noyabrdagi PQ-4881-son "Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 14-apreldagi 213-son "Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori hamda ushbu faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamizda bo'lajak murabbiy o'qituvchilarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash, kurash sportini o'qitish metodikasini takomillashtirish yuzasidan, pedagogik jarayonni yaxlit tizim sifatida o'rganish muammolari bo'yicha A.N.Abdiyev, A.K.Atayev, K.T.Yusupov, N.N.Azizov, A.Y.Bagdasarov, Sh.A.Mirzaqulov, R.S.Salamov, D.E.Nurishov, tomonidan muayyan darajada o'rganilgan. Boshqa tadqiqotchilar kurashchilarni tayyorlashda amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishda jismoniy tayyorgarlik darajasini beqiyos ahamiyatini ta'kidlagan holda, uni texnik-taktik mahoratini shakllantirish masalasi bo'yicha T.S.Usmonxodjayev, I.B.Aliyev, N.A.Tastanov, Sh.E.Keldiyorov va F.A.Kerimov kabi olimlarning izlanishlarida o'z aksini topgan².

² Абдиев А.Н. Яккакураш спорт турларида ихтисослашувчи талабаларда мураббийнинг касбий кўникмаларини шакллантиришнинг илмий – педагогик асослари. Пед. фан. ном.дисс. – Т.: 2004. – Б. 48-59.; Atayev A.K. Yosh-o'smirlarga o'zbek kurashini o'rgatish uslubiyati. O'quv qo'llanma. Toshkent "O'zDJTI" nashriyot-matbaa. 2005. – 129 b.; Yusupov K. Kurash xalqaro qoidalari, texnikasi va taktikasi. Ilmiy uslubiy qo'llanma. G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa imodiy uyi. Toshkent 2005. – 130 b.; Azizov N.N. Mалакали дзюдочиларнинг махсус ва мусобақа олди тайёргарлигини шакллантириш //Пед.фан.номзодлик: дисс.автореф., ОАК ЎзР 13.00.04., Тошкент. ЎзДЖТИ. 2007. – 128 б.; Багдасаров А.Ю. Специфика построения соревновательной деятельности дзюдоистов высокого класса при использовании интервальной мышечной тренировки //кандидата Педагогических наук: дисс.автореф., ВАК ЎзР 13.00.04., Ташкент. УзГИФК. 2010. – 131 с.; Mirzaqulov Sh.A. Belbog'li kurash nazariyasi va uslublari //O'quv qo'llanma - Т.: 2014. -216 s.; Salamov R.S. Sport mashg'ulotlarining nazariy asoslari. 2 tom. Darslik. ITA-PRESS. Т. 2015.-181 b.; Нуримов Д.Е. Ёш курашчиларда базавий элементларни шакллантиришнинг илмий-услубий асосларини такомиллаштириш //Пед.фан.номзодлик: дисс....автореф., ОАК ЎзР 13.00.04., Чирчик. ЎзДЖТИ. 2018. – 132 б.; Usmonxodjaev T.S., Artiqov Z.S., Qirg'izboev M.M. Belbog'li kurashchilarning jismoniy tayyorgarligi. O'quv qo'llanma. Toshkent "O'zkitobsavdonashriyoti", 2020. – 177 b.; Aliyev I.B. Kurashda ko'p yillik tayyorgarlik bosqichlarida mashg'ulot yuklamalarini optimallashtirishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. "O'zkitobsavdonashriyoti". 2020. – 128 b.; Tastanov N.A. Kurash turlari nazariyasi va uslubiyati. Darslik "Sano-standart" Toshkent. 2017. – 480 b.; Keldiyorov Sh. – Kurash milliy sport turi harakatlarini dastlabki o'rgatish uslublarini takomillashtirish. Monografiya. Toshkent: "O'zbekiston nashriyoti", 2021. – 138 b.; Kerimov F.A. Sportda ilmiy tadqiqotlar. Darslik. Т.: 2023.-394 b.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi olimlari kurashchilarni tayyorlashda nazariy va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish, yuklamalarni rejalashtirish va nazorat qilish masalalari bo'yicha V.I.Lyax, V.G.Pashinsov, L.P.Matveyev, V.P.Guba, V.N.Platonov, kabi yetuk olimlar ushbu jarayonni asosiy vazifalardan biri deb hisoblaydilar³.

Xorijiy yetakchi olimlar talaba-yoshlarni salomatligini mustahkamlash, jismoniy va funksional holatini yaxshilash, sport turlari bilan shug'ullanish samaradorligini oshirish, kundalik harakat faolligi, psixo-fiziologik holatini oshirish hamda nazariy-amaliy ko'nikma va malakalarini takomillashtirish masalalari bo'yicha S.Coudron, N.Mizuguchi, M.Spano, I.Sari va B.Bayazitlar tomonidan ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan⁴.

Ta'lim samaradorligini ta'minlash, bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarining kurash elementlarini hakakatli o'yinlar asosida shakllantirishning o'qituvchilar kasbiy-faoliyat kompetentligiga bog'liq ekanligi mazkur tadqiqot ishining pedagogik jihatdan tadqiq etilishi zaruratini belgilab berdi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Chirchiq davlat pedagogika universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi "Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi oliy ta'lim muassasalari talabalarida kurashning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

talabalarining kurash sporti bo'yicha amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish mexanizmlarini pedagogik jihatlarini aniqlashtirish;

talabalarining kurash sporti bo'yicha amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirishning pedagogik shart – sharoitlarini belgilash asosida jarayon modelini ishlab chiqish;

talabalarining kurash sporti bo'yicha amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish mexanizmlarini harakatli o'yinlar klasteri asosida takomillashtirish;

talabalarda kurash sporti bo'yicha amaliy kompetensiyalarning shakllanganligini baholash mezonlarini takomillashtirish.

Tadqiqotning obykti sifatida harakatli o'yinlar asosida talabalarining kurash bo'yicha amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulot jarayonlari olingan.

³ Лях В.И. Теория управления двигательными действиями по Н.А. Бернштейну //Физическая культура в школе. – Москва, №7. 2006. – С. 15-19. Пашинцев В.Г. Физическая подготовка квалифицированных дзюдоистов к главному соревнованию года: монография // М.: «Спорт» 2016. – 208 с.; Матвеев Л.П. Теория и методика физической культуры: учебник для ин-тов физ. культ. - М.: ФиС, 2008. – 149 с.; Губа В.П. Детско-юношеский спорт: основы технологии качества научных исследований и процесса подготовки. «Теория и практика физической культуры» ежемесячный научно-теоретический журнал. Тюмен. №8 2017. – С. 21-43.; Платонов В.Н. Двигательные качества и физическая подготовка спортсменов. Учебник. Москва «СПОРТ» 2019. – 656 с.

⁴ Coudron S. Attenuation of the evoked responses with repeated exposure to proprioceptive disturbances is muscle specific / S.Caudron, L.Langlois, V.Nougier, M.Guerraz// J.Gait Posture. – 2010. – №2. – P.161-168.; Mizuguchi N. Brain activity during motor imagery. In: K. Kanosue, T. Nagami and J. Tsuchiya, eds., Sports Performance, 1st ed. Springer Japan, 2015. – P. 13-24.; Spano M. Basic nutrition factors in health. In: G.G. Haff and N.T. Triplett, eds., Essentials of strength training and conditioning, 4th ed. Champaign, IL: Human Kinetics, 2016. – P. 175-200.; Sari I., & Bayazit B. The Relationship Between Perceived Coaching Behaviours, Motivation and Self-Efficacy in Wrestlers. Journal of Human Kinetics, 57(1), 2017. – P. 199-202.

Tadqiqotning predmetini talabalarda harakatli o‘yinlar orqali kurashning amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirishning mazmuni, o‘qitish shakllari, metodlari, vositalari va texnologiyalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida mavzuga doir pedagogik, psixologik va metodik manbalar, didaktik materiallar, faoliyat natijalarini o‘rganish va tahlil qilish, suhbat, kuzatish, pedagogik tajriba, tadqiqot natijalarini matematik-statistik kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talaba-kurashchilarning himoya va xujum usullarini rivojlantirish uchun texnik harakat shakllanganlik darajalari bo‘yicha baholash mezonlaridan tashkil topgan texnikani tizimli rivojlanlanganligi hamda tezkor qaror qabul qilish kabi jismoniy beqaror holat modellarini (muvozanat saqlash va organizm jismoniy holati bo‘yicha) yakka va jamoaviy harakatlariga shaxsiy differensiallikda qo‘llash hisobiga musobaqalarga maqsadli tayyorlash imkoniyatlari kengaytirilgan;

talaba-kurashchilar bilan olib boriladigan mashg‘ulotlarni takomillashtirish uchun kurashning maxsus usullarini integral yondashuv usuli yordamida konseptual asosni o‘z ichiga olgan tarkibiy, jarayonli, baholash va natija kabi komponentlarini umumiy va maxsus tayyorgarlik darajasi bo‘yicha moslashtiruvchi modelini ishlab chiqish hisobiga musobaqadan oldingi nazorat sinovlari va natijalar dinamikasi yaxshilangan;

talaba-kurashchilarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun jismoniy, psixologik va fiziologik holati bo‘yicha qat‘iyatlilik hamda irodaviylik sifatlarini shakllantirishga qaratilgan kongnitiv, motivatsion, faoliyatli va shaxsiy tayyorgarlik komponentlarini ixtisoslikka xos nazariy va amaliy tayyorgarlikni integratsiya qilgan holda mashg‘ulotlarga kiritish hisobiga usullarni texnik jihatdan to‘g‘ri bajarish imkoniyatlari oshirilgan;

talabalarining kurash bo‘yicha maxsus tayyorgarligini oshirish uchun amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish modelini sog‘lom-turmush tarzini oiladan ta‘limga, ta‘limdan musobaqagacha munosabatida barqarorlashtiruvchi yakka va jamoaviy ish turlarini kurashning ommabop elementlari kombinatsiyasini valeologik maqsadlarni (aqliy, psixologik va somatik qobiliyatlar kabi) darajalari bo‘yicha mashg‘ulotlarga kiritish hisobiga texnik harakatlarni amaliy o‘zlashtirish darajasi optimallashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

talabalarga jismoniy madaniyat fanini hamda kurash elementlarini o‘rgatishda amaliy kompetensiyalarni rivojlantirish tamoyillari, shakl va vositalari hamda ularni ta‘lim jarayoniga qo‘llashda bo‘lajak o‘qituvchi va murabbiylarning faoliyat kompetentligini baholash me‘zonlari ishlab chiqilgan;

talabalar amaliy kompetentligini baholash mazmuniy, pedagogik, texnologik, kreativlik, prognoz qilish komponentlarini o‘z ichiga olgan modeli ishlab chiqilgan;

oliy ta‘lim muassasalari jismoniy madaniyat yo‘nalishi talabalarini uchun “Kurash turlari va uni o‘qitish metodikasi” (Milliy kurash) nomli darslik ishlab chiqilgan;

oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida talabalarning amaliy kompetentligi rivojlanganlik darajasini baholash usullari amaliyotga joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo'llanilgan yondashuv va usullar, uning doirasida foydalanilgan nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbaalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistik metodlar vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarining vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, dissertatsiya ishida ilmiy asoslab berilgan ma'lumotlar, taklif etilgan metodlar, texnologiyalar hamda tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan dastur, model, mexanizm va tavsiyalar ilmiy jamoatchilik tomonidan qo'llanmalar va uslubiy tavsiyalar tayyorlashda, pedagog kadrlarning o'z ustida ishlash ko'nikmasi mazmunini takomillashtirishda foydalanishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, olingan natijalardan oliy ta'lim muassasalari jismoniy tarbiya yo'nalishi talabalari hamda pedagogika yo'nalishi o'quv mashg'ulotlarida, darslarni harakatli o'yinlar asosida kurash elementlarini o'qitish jarayonini osonlashtirishda, o'qituvchi va murabbiylarning metodik tayyorgarligini takomillashtirishda, jismoniy madaniyat ta'limi mazmuni va sifatiga qo'yiladigan davlat ta'lim standartini ishlab chiqish, o'qitish sifatini takomillashtirish hamda ta'limning hududiy tuzilmalari faoliyatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Talabalarda kurash bo'yicha amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

talaba-kurashchilarning himoya va xujum usullarini rivojlantirish uchun texnik harakat shakllanganlik darajalari bo'yicha baholash mezonlaridan tashkil topgan texnikani tizimli rivojlanlanganligi hamda tezkor qaror qabul qilish kabi jismoniy beqaror holat modellarini (muvozanat saqlash va organizm jismoniy holati bo'yicha) yakka va jamoaviy harakatlariga shaxsiy differensiallikda qo'llash uslubiyati "Kurash turlari va uni o'qitish metodikasi "(Milliy kurash)" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-maydagi 232-son buyrug'iga asosan № 232-418 raqamli guvohnoma). Natijada, musobaqaga tayyorlash samaradorligi 12,5 % ga oshgan;

talaba-kurashchilar bilan olib boriladigan mashg'ulotlarni takomillashtirish uchun kurashning maxsus usullarini integral yondashuv usuli yordamida konseptual asosni o'z ichiga olgan tarkibiy, jarayonli, baholash va natija kabi komponentlarini umumiy va maxsus tayyorgarlik darajasi bo'yicha moslashtiruvchi modelni qo'llash bo'yicha taklif va tavsiyalar O'zbekiston Milliy universiteti talaba-kurashchilarining mashg'ulotlariga tatbiq etilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2025-yil 1-fevraldagi № 11-05-705/04-son ma'lumotnomasi).

Natijada, musobaqadan oldingi nazorat sinovlari va natijalar dinamikasi 11,2 % ga yaxshilangan;

talaba-kurashchilarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish uchun jismoniy, psixologik va fiziologik holati bo'yicha qat'iyatlilik hamda irodaviylik sifatlarini shakllantirishga qaratilgan kongnitiv, motivatsion, faoliyatli va shaxsiy tayyorgarlik komponentlarini ixtisoslikka xos nazariy va amaliy tayyorgarlikni integratsiya qilgan holda mashg'ulotlarga kiritish bo'yicha taklif va tavsiyalar "Kurash turlari va uni o'qitish metodikasi "(Milliy kurash)" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-maydagi 232-son buyrug'iga asosan № 232-418 raqamli guvohnoma). Natijada, usuldan usulga o'tish samaradorligi 9,7 % ga yaxshilangan;

talabalarining kurash bo'yicha maxsus tayyorgarligini oshirish uchun amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish modelini sog'lom-turmush tarzini oiladan ta'limga, ta'limdan musobaqagacha munosabatida barqarorlashtiruvchi yakka va jamoaviy ish turlarini kurashning ommabop elementlari kombinatsiyasini valeologik maqsadlarni (aqliy, psixologik va somatik qobiliyatlar kabi) darajalari bo'yicha mashg'ulotlarga kiritishga doir taklif va tavsiyalar Qarshi va Termiz davlat universitetlari talaba-kurashchilari mashg'ulotlariga tatbiq qilingan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2025-yil 1-fevraldagi № 11-05-705/04-son ma'lumotnomasi). Natijada, texnik harakatlarni amaliy o'zlashtirish darajasi 10,4 % ga oshgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 5 ta respublika miqyosidagi anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 17 ta ilmiy-uslubiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, umumiy xulosalar, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, asosiy matni 154 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog'liqligi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob'ekti, predmeti aniqlangan hamda ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi, tuzilishi va hajmiga oid ma'lumotlar o'z aksini topgan.

Dissertatsiyaning "**Talabalarda kurash bo'yicha amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishning nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida, milliy kurash bo'yicha talabalarda amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishning metodologik asoslari hamda harakatli o'yinlar klasterini ta'minlashning pedagogik shart-sharoitlari tahlil qilingan.

Adabiyotlar tahliliga ko'ra, mutaxassislar kurashning turlari bo'yicha texnik-taktik tayyorgarlikni shakllantirishning bir-biridan farqli usullari bo'lishi, kurashchilarning o'quv-mashg'ulot jarayonini optimallashtirish va eng muhimi, ularni texnik-taktik harakatlarga o'rgatishda musobaqa faoliyatini o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda harakatli o'yinlar va kurash sportini klasterini ta'minlash asosida talabalarning kurash bo'yicha rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish imkonini beradi. Qadimdan o'zbek milliy kurashi ijtimoiy harbiy ahamiyatdagi jang san'ati bilan bevosita muvofiq bo'lib, tajribali jangchilar yoshligidanoq jismoniy, ma'naviy va ruhiy jihatdan tayyorgarligini oshirishi xususida Avesto hamda Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida keltiriladi.

Bugungi kunda ham kurashchilar, umuman sportchilar tomonidan texnik-taktik harakatlar kombinatsiyalari (klasteri) asosida bajarish, sport mahoratining o'sishiga hamda musobaqalarda muvaffaqiyatli qatnashishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Milliy kurash maktabini tadqiq etgan olimlardan K.T.Yusupov, A.Q.Atoyev, F.A.Kerimov, A.R.Taymuratov, K.B.Muxammadiyev, Sh.A.Mirzaqulov, T.S.Usmonxodjayev, N.A.Tastanov, Sh.E.Keldiyorov, F.Bobomurodov, S.S.Tadjibayevlar ilmiy mulohazalaridagi pedagogik, psixologik jihatlar, sub'ektlarning faol harakatlar rejimiga yo'naltirilganligi bizning ilmiy mulohazalarimizga mos tushadi olimlarning qarashlarida shaxsdagi amaliy ko'nikmalar faoliyatdan farqli o'laroq, tashqi (obyektiv) ichki (subyektiv) omillar mobilligi (moslashuvchanligi)ga bog'liq bo'ladi.

Sportchi organizmiga mashg'ulot ta'sirining umumiy spektrini qamrab olishi mumkin bo'lgan maxsus tayyorgarlik va ayniqsa, tuzatish mashqlarida qo'llaniladigan pedagogik sharoitlarni shakllantirish zarurati, xususan kurashchilarning texnik-taktik harakatlarini takomillashtirishda kasbiy-ta'limiy klaster muhitini yaratish tadqiqotimizning asosiy g'oyasini tashkil qiladi.



1-rasm. Kurashchilarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan klaster tizimi

Klaster muhiti deyilganda harakatli o'yinlar asosida milliy kurash elementlarini ta'minlash ko'zda tutiladi bu birinchidan, pedagogik tayyorgarlik (texnik va taktik mashg'ulotlar, kurash qoidalari va elementlari, topshiriq va mashqlar) ikkinchidan, psixologik tayyorgarlik (harakatli o'yin elementlarini qo'llash asosidagi milliy kurashni rivojlantiruvchi psixologik-pedagogik motivlar, g'oliblik portreti, noqulay sharoitlar yaratish mazmunida kuchli irodani namoyon etishga yo'naltirish), uchinchidan, g'oyaviy targ'ibot va axloqiy tarbiyaviy tayyorgarlik (milliy bayram va xalq sayllaridagi milliy kurash hamda harakatli o'yinlardagi ishtiroki asosida yoshlar irodasini tarbiyalashda ta'lim muassasalari, mahalla, sport faxriylari) klasteri ya'ni, shaxslar, harakatlar, tashkilotlar orasidagi manfaatli hamkorlikni ta'minlash funksiyalari nazarda tutiladi. Amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishda ta'limning turli shakllaridan foydalanish ya'ni dars va darsdan tashqari turlaridan foydalanish talabalar faoliyatini mazmunli tashkil etishning ilmiy asosini tashkil etadi bu o'z navbatida klaster yondashuvni amalga oshirish imkonini yaratadi. Klaster yondashuvi zarurati say-harakatlarni birlashtirishning tashkiliy shakli sifatida klasterning afzalliklari bilan belgilanadi. Bu esa amaliy ko'nikmalarni klasterlash imkonini yaratadi (1-rasmga qarang).

Shuningdek, tadqiqot usullari va tashkil qilish vazifalaridan kelib chiqib, talabalarning kurash sporti bo'yicha amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik jihatlari harakatli o'yinlar klasterini ta'minlashning muhim komponenti sifatida mobillik ya'ni, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy faoliyatga tez moslashuvchanligi, jamiyat hamda jamoaga ijtimoiylashuvi harakatli o'yin elementlari bazasida milliy kurash harakatlariga adaptivlashishi nazarda tutiladi. Shu kabi jismoniy, ma'naviy va psixologik yuklamalarga muvofiqlik ko'nikmalarini shakllantirish hamda o'zlashtirilgan bilimlar, ko'nikmalar va harakatlarning natijaviylik tamoyillarini faol harakat rejimiga yo'naltirilganligi ham nazariy jihatdan asoslangan. Bunda ta'lim subektlar o'rtasidagi konstruktiv ya'ni, talabalarning jismoniy, ma'naviy yoki aqliy faoliyat bilan bog'liq har qanday muammoni oqilona hal qilishga, barcha harakatlarining vaziyatni tushunishga, variantlarni hisoblashga, samarali yo'lni topish, maqsadga erishishga qaratilgan munosabatlarda ijobiy raqobatbardoshlikni ta'minlovchi yondashuvni nazarda tutadi.

Xulosa qilib aytganda, kurash bo'yicha amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishning metodologik asoslarini o'rganish va amaliyotga joriy etish, davlat va jamiyat uchun muhim ahamiyat kasb etib, yoshlarni vatanparvar, milliy qadriyatlarga sodiq, jismonan sog'lom va aqlan teran shaxslar etib shakllanishda asosiy omillaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Bu ayni paytda respublikamizda o'zining huquqiy-meyoriy asoslariga ega. Xususan, etnosport turlarini ommalashtirish va rivojlantirish YUNESKO hamda boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda milliy sport turlari va xalq o'yinlariga alohida e'tibor qaratilishi belgilangan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqotning usullari va tashkil qilinishi”** deb nomlangan ikkinchi bobida pedagogik tadqiqot va uni tashkil qilish, tadqiqot natijalari va uning tahlili keltirilgan. Shuningdek, kurashchilarning individual harakatlar faoliyatini o'rganish, sportchilar jismoniy tayyorgarligi, texnik-taktik harakatlar arsenaliga ta'siri va jarohatlanishlarni oldini olishga yo'naltirilgan maxsus tayyorlov mashqlar

majmuasi hamda kurashchilarning salomatligi va jismoniy tayyorgarligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqligiga doir ma'lumotlar bayon etilgan.

Tadqiqot ishlari 2020-2023 yillar davomida uch bosqichda o'tkazildi.

Birinchi bosqich (2020-2021 o'quv yillari) nazariy tadqiqotlarga bag'ishlangan, o'rganilayotgan masalaning ilmiy va amaliy holati tahlil qilingan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, usullari belgilangan, kurashchilarni texnik-taktik harakatlarga o'rgatish paytida klaster uslubini qo'llash doirasidagi ilg'or tajriba umumlashtirilgan, o'smir, yosh va katta yoshdagi sportchilar o'rtasida jarohatlanishlar muammosi, pedagogik-psixologik vaziyat tahlili asosida fanni o'qitishda talabalarning amaliy kompetentligini shakllantirish va baholash g'oyalarini amalga oshirish shartlari aniqlandi. Unda o'qituvchilar va talabalar faoliyatlarini pedagogik kuzatish, tajriba darslari, qiyosiy tahlil; anketa so'rovnomalari; suhbat; test; bahs-munozara; ilg'or tajribalarni umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Ikkinchi bosqich (2021-2022 o'quv yillari) kurash bilan shug'ullanishning pedagogik va metodologik sharoitlarini klaster usulida tashkillashtirish majmui ishlab chiqildi. Unda amaliy kompetentligini shakllantirishni joriy etish va uni baholash modeli doirasidagi nazariyani rivojlantirishga yo'naltirildi. Shuningdek, mavzuning ilmiy-amaliy asoslarini aniqlash, amaliy faoliyat kompetentligini shakllantirish modelini amalga oshirishning metodik vositalari va usullarini tadqiq qilishdan iborat bo'ldi hamda ishlab chiqilgan dasturiy-metodik materiallar asosida o'tkazildi.

Uchinchi bosqichda (2022-2023 o'quv yillari) – Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti, Qarshi davlat universiteti, Termiz davlat universitetining sport faoliyati yo'nalishidagi bakalavriat talabalari, hamda Chirchiq davlat pedagogika universitetining maktabgacha va boshlang'ich ta'limda jismoniy tarbiya va sport yo'nalishida tahsil olayotgan tayyorgarlik darajalari bir-biriga yaqin bo'lgan kurashchilar o'rtasida asosiy tajriba o'tkazilgan, kurashchilar nazorat va tadqiqot guruhlariga ajratilgan. Bunda natijalarni taqqoslash, baholash metodlarining samaradorligi mezonlarini ishlab chiqish va bu asosda natijalarni baholash hamda boshlang'ich ishchi faraz va nazariy modelga tuzatishlar kiritishga yo'naltirildi.

Mazkur tadqiqotni amalga oshirishda qo'yilgan g'oyalar va metodik takliflarga asosan tajriba-sinov bilan tanishtirish ishlari olib borilib, faoliyat kompetentligini shakllantirish metodikasini takomillashtirishning nazariy asoslari va ularni amalga oshirish usullarining eng samarali nisbatini aniqlash maqsad qilib qo'yildi.

Pedagogik tadqiqot Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti, Termiz davlat universiteti, Qarshi davlat universitetlarining sport faoliyati yo'nalishidagi bakalavriat talabalari hamda Chirchiq davlat pedagogika universitetining Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda jismoniy tarbiya va sport yo'nalishining negizida olib borildi va belgilangan vazifalarni hal qilish uchun talabalarga testlar va uslublardan iborat majmuasi taklif etildi. Metodi, shaxsning o'zini-o'zi baholashni o'rganish uslubiyati shuningdek, turli anketa so'rovlari, suhbatlar o'tkazildi, qaydnomalar rasmiylashtirildi (1-jadvalga qarang).

Talabalarning jismoniy tayyorgarlik darajasi bo'yicha tadqiqot natijalari tahlili

O'quv yili	Talabalar soni		O'zlashtirish darajasi	Tajriba guruhi		Nazorat guruhi	
	TG	NG		Soni	V %	Soni	V %
2020-2021 o'quv yili bo'yicha o'rtacha	108	105	Yuqori	11	10,19	11	10,48
			O'rta	21	19,44	19	18,10
			Past	76	70,37	75	71,43
2021-2022 o'quv yili bo'yicha o'rtacha	108	105	Yuqori	10	9,26	9	8,57
			O'rta	20	18,52	15	14,29
			Past	78	72,22	81	77,14
2022-2023 o'quv yili bo'yicha o'rtacha	108	105	Yuqori	8	7,41	9	8,57
			O'rta	20	18,52	16	15,24
			Past	80	74,07	80	76,19
Jami 2020-2023 o'quv yillari bo'yicha o'rtacha	324	315	Yuqori	29	8,95	29	9,21
			O'rta	61	18,83	50	15,87
			Past	234	72,22	236	74,92

O'tkazilgan pedagogik tajribadan olingan natijalarning ishonchliligi darajasi tahlil qilindi. Bo'lajak o'qituvchilarning amaliy-faoliyati, kasbiy-pedagogik tayyorgarlikka ustuvorlik berishi ularning o'quv-bilish, ta'lim berish va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish faoliyatidagi amaliy samaradorlikka erishishini ta'minlaydi. Faoliyat kompetensiyani shakllantirish mexanizmlarini namoyon etishning yanada aniq ifodalanishi to'g'risida fikr yuritish mumkin.

Pedagogik tadqiqotni boshlashdan avval, fan mazmunini ochib beruvchi ma'lumotlar, tadqiqotchi hamda professor-o'qituvchilar tomonidan o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijasi tadqiqotimiz ilmiy farazini tekshirish jarayonida talabalarning bilim darajasi o'sib borishi tasniflangan mezonni ko'rsatdi.

“Kurash turlari va uni o'qitish metodikasi” fani bo'yicha tajriba boshida o'tkazilgan tajriba-sinov natijalari 1-jadvalda berilgan. Tadqiqot davomida amaliy mashg'ulot va mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar talabalarning jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga doir bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish uchun individual jismoniy fazilatlarini takomillashtirishga qaratilgan pedagogik faoliyat hamda harakatli o'yinlar tashkil etildi.

Yuqoridagi hisob kitoblarga ko'ra, tanlab olingan guruhlardagi natijalar tajriba guruhida nazorat guruhiga nisbatan yuqori ekanligi matematik statistik usullar bilan isbotlandi. Tajriba guruhidagi samaradorlik O'zMU da 11 %, ChdPU da 11,7 % va QDU da 12 % ga TerDU da 12,3 % ga ortganligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu ma'lumotlar tahlili shundan iboratki, tajriba guruhida qatnashgan talabalarda “Kurash turlari va uni o'qitish metodikasi” fanini o'qitish jarayonida ulardagi amaliy ko'nikmalarini harakatli o'yinlarni o'tkazish texnologiyasi yordamida rivojlanganlik darajalari tajriba boshida 7,23%, tajriba oxirida 19,28% yuqori darajani ko'rsatdi. O'rta

daraja tajriba boshida 19,28% dan tajriba oxirida 38,55% o'sdi, past daraja esa 73,49% dan 42,17% ga kamaydi. Nazorat guruhida qatnashgan talabalarda "Kurash turlari va uni o'qitish metodikasi" fanini o'qitish jarayonida ulardagi amaliy ko'nikmalarini harakatli o'yinlarni o'tkazish texnologiyasi yordamida rivojlanganlik darajalari tajriba boshida 9,3%, tajriba oxirida 10,47% yuqori darajani ko'rsatdi. O'rta daraja tajriba boshida 15,12% dan tajriba oxirida 16,28% o'sdi, past daraja esa 75,58% dan 73,26% ga kamaydi.


Pedagogik tajriba-sinov ishi 2020-2021, 2021-2022, 2022-2023 o'quv yillarida O'zbekiston milliy universiteti, Termiz davlat universiteti, Qarshi davlat universiteti va Chirchiq davlat pedagogika universitetlarida uch yil davomida olib borildi. Tajriba guruhida (TG) - 324 nafar talabalar va nazorat guruhida (NG) - 315 nafar talabalarning amaliy ko'nikmalarini harakatli o'yinlarni o'tkazish texnologiyasi yordamida rivojlanganlik darajalari aniqlandi va o'tkazilgan tajriba ishlari samaradorligi matematik-statistik jihatdan aniqlandi (2-jadvalga qarang).

2-jadval

Tadqiqot boshida talaba-kurashchilarning texnik harakatlarni bajarish bo'yicha natijalari tahlili

Amaliy ko'nikmalarni harakatli o'yinlarni o'tkazish texnologiyasi yordamida rivojlanganlik darajasi	Tajriba guruhi				Nazorat guruhi			
	Tajriba boshida 324 nafar talabalar		Tajriba oxirida 324 nafar talabalar		Tajriba boshida 315 nafar talabalar		Tajriba oxirida 315 nafar talabalar	
	soni	%	soni	%	Soni	%	soni	%
Yuqori	29	8,95	68	20,99	29	9,21	35	11,11
O'rta	61	18,83	125	38,58	50	15,87	55	17,46
Past	234	72,22	131	40,43	236	74,92	225	71,43
Jami:	324	100	324	100	315	100	315	100

Tadqiqotga jalb qilingan talaba-kurashchilarda "Kurash turlari va uni o'qitish metodikasi" fanini o'qitish jarayonida ulardagi amaliy ko'nikmalarini harakatli o'yinlarni o'tkazish texnologiyasi yordamida rivojlanganlik darajalari tajriba boshida 8,95 %, tajriba oxirida 20,99 % yuqori darajani ko'rsatdi. O'rta daraja tajriba boshida 18,83 % dan tajriba oxirida 38,58 % o'sdi, past daraja esa 72,22 % dan 40,43 % ga kamaydi.




2-rasm. Pedagogik tadqiqot boshida tajriba va nazorat guruhidagi kurashchilarning jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari natijalari tahlili

Nazorat guruhlarida qatnashgan talabalarda “Kurash turlari va uni o‘qitish metodikasi” fanini o‘qitish jarayonida ulardagi amaliy ko‘nikmalarini harakatli o‘yinlarni o‘tkazish texnologiyasi yordamida rivojlanganlik darajalari tadqiqot boshida 9,21 %, tajriba oxirida 11,11 % yuqori darajani ko‘rsatdi. O‘rta daraja tajriba boshida 15,87 % dan tajriba oxirida 17,46 % o‘sdi, past daraja esa 74,92 % dan 71,43 % ga kamaydi.

Dissertatsiyaning “**Harakatli o‘yinlar klasterida milliy kurash bo‘yicha amaliy kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalari**” deb nomlangan uchunchi bobida talabalarning milliy kurash bo‘yicha amaliy kompetensiyalarini shakllantirish modeli hamda talabalarning nazariy tayyorgarlik va amaliy kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik jihatlarini xususida fikr yuritilgan.

Pedagogik amaliyotda harakatli o‘yinlar orqali kurash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish texnologiyalari muammosini o‘rganish va tadqiq etish hamda uning metodologiyasi bilan bog‘liq masalalar, sportchilarning ishtiroki davridagi maqsad, vazifalarni belgilash, natijaga bo‘lgan motivatsiyasi barqarorligini ta‘minlash hamda tashkiliy daqiqalarni muvofiqlashtirish masalalari dolzarblik kasb etadi.




3-rasm. Talabalarda kurash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan moslashuvchan modeli

Shu ma'noda harakatli o'yinlar klasterida kurash bo'yicha amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish texnologiyalarini amaliyotda qo'llashga tayyorgarlik masalalarini o'z vaqtida maqsadga muvofiqlashtirish, mas'ul shaxs va tashkilotlar bilan bog'liq funksional vazifalarni aniqlashtirish, pedagogik-psixologik shart-sharoitlarni taminlash, o'yin o'tkaziladigan joylarning infratuzulmasini sport o'yinlari maqsadiga yo'naltirish, ishtirokchilarning majburiyatlarini tushuntirish hamda hamkor tashkilotlar bilan umumiy natijaga erishish yo'l xaritasi ishlab chiqilib va amaliyotga joriy etish alohida ahamiyat kasb etgan.

Masalaning yana bir muhim jihati harakatli o'yinlar asosida milliy kurash bo'yicha amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish masalasi bo'lib, unda qo'llaniladigan barcha elementlarni takomillashtirish, talabalarning xatti-harakatlari, zaruriy jismoniy va axloqiy fazilatlarini professional darajada namoyon bo'lishiga yo'naltiruvchi manbaa bo'lib xizmat qilishi (L.S. Podimovoy, V.A.Slastenina) hamda unda o'qituvchi shaxsi asosiy rolni o'ynashidir. Bunda pedagog murabbiylar tomonidan harakatli o'yinlar talabalar sog'lig'ini mustahkamlashga, jismoniy rivojlanishiga har tomonlama hissa qo'shishga yo'naltirilishi, ularda muhim hayotiy ko'nikmalarini egallash, ularning professional qobiliyatini takomillashtirish, hamda kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan axloqiy-irodaviy va jismoniy, shuningdek, tashkilotchilik ko'nikmalarini tizimli va mustaqil ravishda rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Shuningdek, harakatli o'yinlarni tashkillashtirish jarayonida individual va jamoa bilan faoliyatlar muvofiqligini ta'minlashda o'qituvchi har bir o'yin ishtirokchisi individual xususiyatlarini inobatga olishi, jamoani yaxshi bilishi, o'yin mazmunini o'rganishi va pedagogik mahoratga ega bo'lishi kerak. Talabalarning sog'lom-turmush tarzini oiladan-ta'limga, ta'limdan-musobaqa jarayoniga munosabatida barqarorlashtiruvchi yakka va jamoaviy ish turlarini to'g'ri va maqsadli tashkil etish metodikasini takomillashtirishni ta'minlaydi. Talabalarning milliy kurash bo'yicha amaliy kompetensiyalarini shakllanishida taqdim etilayotgan metodik modeli harakatli o'yinlar asosida milliy kurashning ommabop elementlari kombinatsiyasi hamda valeologik maqsadlar klasteri asosida optimallasadi (3-rasmga qarang).



4-rasm. Talabalarda kurash bo'yicha amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish mezonlari va baholash tuzilmasi

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini kurash bo'yicha amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishda jismoniy faoliyatining o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq, fikrimizcha tizimli ravishda uch turdagi kompetensiyalarni nazarda tutadi, bular: jismoniy, psixologik va fizologik tayyorgarlik. Har bir kompetensiya o'z navbatida alohida maxsus bilimlar, ko'nikmalar, amaliy faoliyatning minimal zarur shaxsiy tajribasi, motivlar, qadriyatlarni o'zida mujassam etar ekan, mazkur kompetensiyalarning tegishli tarkibiy qismlari mazmunini umumlashtirgan holda amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish mezonlari aniqlandi (4-rasmga qarang). Jismoniy tayyorgarlik sog'lom jismoniy rivojlanish tendensiyalari asosida ijtimoiy ta'lim buyurtmasini, buyurtmachilarning jismoniy tarbiyaga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish shuningdek, sog'lom turmush asoslarini, kurash sporti faoliyat usullarini yangi musobaqalar sharoitlarga moslashtira olish qobiliyati hisoblanadi.

Psixologik tayyorgarlik tizimi faoliyati bilan bog'liq masalalarni psixologik ruhiy jihatdan samarali va ijobiy hal qilish qobiliyati bo'lib, iqtisodiy-huquqiy turli vaziyatlarda o'z ruhiy faoliyatini ifodalovchi qadriyatlar va motivlar bilan tartibga solinadi. Fizologik tayyorgarlik kompetensiyasi amaliy ko'nikmalarni egallashda jismoniy chiniqishga bog'liq psixofizologik xususiyatlari va imkoniyatlariga muvofiq barcha turdagi faoliyatini, organizmning sog'lom rivojlanishiga muntazam sport formasini ta'minlash imkon beradi. Olib borilgan tahlillarga asoslanib amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish tuzilmasining quyidagi mezonlari aniqlandi:

Kognitiv mezon – kurashga oid bilimlarni o'zlashtirish, faoliyatning asosini tashkil etuvchi, real vaziyatlarni professional kurashchi sifatida ma'lumotlar asosida tahlil qilish va muammolarni hal qilish yo'lini tanlay olishni ta'minlovchi zarur amaliy bilimlar majmuini bilishni o'z ichiga oladi.

Motivatsion mezon – milliy kurash usullarni namoyish qilishning ijobiy motivatsiyasi, jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirishga qiziqish, turli musobaqalar sharoitida raqobat, hamkorlik, qarama-qarshilik, psixologik va fizologik tayyorgarlik o'rtasidagi bog'liqlik darajasi, ehtiyoj kabi ko'rsatkichlar asosida tavsiflanadi.

Faoliyatli mezon - tegishli ko'nikmalarni o'zlashtirish, amaliy ko'nikmalarni egallash muammolarni hal qilish yo'llarini tanlash, tezkor qaror qabul qilish ko'nikmalari va tajribalari majmui bilan ifodalanadi.

Shaxsiy mezon – kurash amaliy faoliyat vektorini xarakterlovchi muhim shaxsiy fazilatlarini, turli irodaviy sifatlarni shakllantirish, turli usullardan foydalanish qarorlarni qabul qilishda mustaqillik, kreativ fikrlash, refleksiya va tafakkurni aks ettiradi.

Talabalar shaxsida harakatli o'yinlar asosida milliy kurash elementlarini shakllantirishga qaratilgan o'quv faoliyatni tashkil etish, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish texnologiyalari shakli sifatida frontal darslarni tashkil etish zarur. Xususan bunda, "Muozanatni yo'qotma" va "Doiraga tort" harakatli o'yinlar asosida milliy kurashning "Yonbosh va yelka usullarini kombinatsiya asosida qo'llash" kabi omillarni muvofiqlashtirishda va samarali amalga oshirishda xizmat qiladi. Masalan, "Muozanatni yo'qotma" harakatli o'yinida milliy kurashga xos bo'lgan turish texnologiyalari, ya'ni qarama-qarshi turib bir-birilariga qo'llarini uzatgan holda tovon juftligida muvozanatni saqlab, qo'llarni ko'krak ro'parasida cho'zib raqib kaftlariga

bir qo‘llab yoki ikki qo‘llab uradi hamda qo‘llarini yon tomonga ochib raqibining unga nisbatan keskin harakatlarini “chap” berish harakatlari, joyidan qo‘zg‘almagan holda o‘z pozitsiyasini saqlab qolishga intilish kabi elementlar shakllanadi.

Talabalarda harakatli o‘yinlar asosida milliy kurash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan o‘quv faoliyatni tashkil etishning frontal shaklini “Kurash turlari va uni o‘qitish metodikasi (Milliy kurash)” fanining “Yonbosh va yelka usullarini kombinatsiya asosida qo‘llash” mavzusidagi amaliy mashg‘ulotga oid dars ishlanmasi misolida keltirib o‘tamiz. Darsning maqsadi turli usullardan foydalanib raqibni yiqitishda har xil usullar va texnik jihatdan to‘g‘ri bajarish hamda “yonbosh va yelka usullarini qo‘llash” dan iborat.

Yuqoridagi harakatli o‘yinlar asosida milliy kurashning “Yonbosh va yelka usullarini qo‘llash” yengil kechadi. Sababi yuqoridagi chigal yozdi mashqlari ular uchun ko‘nikmaga aylangan bo‘ladi.

Talabalar jamoasi mashg‘ulot yakunida, o‘qituvchi murabbiy boshchiligida o‘z va safdoshlari yutuqlarini, yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarini har tomonlama muhokama qiladi, hamda pedagogik-psixologik korreksion yondashuvlar yuzasidan zaruriy tavsiya va takliflar beriladi.

Jarayonni komponentning harakatli o‘yinlar asosida kurash elementlarini rivojlantirishda o‘qituvchi murabbiyning professional yondashuvi, talabalar faoliyatini tashkil etishda individual va guruhli o‘quv shakllariga e‘tibori ham muhim hisoblanadi.

3-jadval

Talaba-kurashchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini oshirishga qaratilgan maxsus mashqlar majmuasi

T/r	Kurash gilamida harakatlanish turlari	O‘ng Chap	Dushanba 17 ⁰⁰ -19 ⁰⁰	Chorshanba 17 ⁰⁰ -19 ⁰⁰	Juma 17 ⁰⁰ -19 ⁰⁰
1	Umbaloq oshishlar hamda himoyalani yiqilishlarni o‘rganish	O‘ng	10x3 metrga 5 marta 5 daqiqa	10x3 metrga 5 marta 5 daqiqa	10x3 metrga 5 marta 5 daqiqa
		Chap	10x3 metrga 5 marta 5 daqiqa	10x3 metrga 5 marta 5 daqiqa	10x3 metrga 5 marta 5 daqiqa
2	Qo‘l va yoqadan ushlagan holda raqibni muvozanatdan chiqarib o‘ziga tortib orqaga harakatlanish	O‘ng	10x3 metrga 10 marta 10 daqiqa	10x3 metrga 10 marta 10 daqiqa	10x3 metrga 10 marta 10 daqiqa
		Chap	10x3 metrga 10 marta 10 daqiqa	10x3 metrga 10 marta 10 daqiqa	10x3 metrga 10 marta 10 daqiqa
3	Qo‘l va yoqadan ushlagan holda raqibni muvozanatdan chiqarib orqaga itarib oldiga harakatlanish	O‘ng	10x3 metrga 10 marta 10 daqiqa	10x3 metrga 10 marta 10 daqiqa	10x3 metrga 10 marta 10 daqiqa
		Chap	10x3 metrga 10 marta 10 daqiqa	10x3 metrga 10 marta 10 daqiqa	10x3 metrga 10 marta 10 daqiqa
4	Qo‘l va yoqadan ushlagan holda raqibni muvozanatdan chiqarib harakatlanish	O‘ng	10x3 metrga 10 marta 10 daqiqa	10x3 metrga 10 marta 10 daqiqa	10x3 metrga 10 marta 10 daqiqa
		Chap	10x3 metrga 10 marta 10 daqiqa	10x3 metrga 10 marta 10 daqiqa	10x3 metrga 10 marta 10 daqiqa

Izoh: Har bir mashq oraliq tanaffusi 30-40 soniya, har bir bajarish oralig‘i 1,30-2,00 daqiqa

4-jadval**Talaba-kurashchilarga dastlabki texnik harakatlarini o'rgatishga qaratilgan maxsus mashqlar majmuasi**

T/r	Kurash texnik usullarning boshlang'ich fazalari	O'ng Chap	Dushanba 17 ⁰⁰ -19 ⁰⁰	Chorshanba 17 ⁰⁰ -19 ⁰⁰	Juma 17 ⁰⁰ -19 ⁰⁰
1	Raqib bilan ushlab uchun kurashish	O'ng	4 daq.dan 5 marta 20 daqiqa	4 daq.dan 5 marta 20 daqiqa	4 daq.dan 5 marta 20 daqiqa
		Chap	4 daq.dan 5 marta 20 daqiqa	4 daq.dan 5 marta 20 daqiqa	4 daq.dan 5 marta 20 daqiqa
2	Tik turgan holatda yelka usuliga kirib chiqish	O'ng	4 daq.dan 5 marta 20 daqiqa	4 daq.dan 5 marta 20 daqiqa	4 daq.dan 5 marta 20 daqiqa
		Chap	4 daq.dan 5 marta 20 daqiqa	4 daq.dan 5 marta 20 daqiqa	4 daq.dan 5 marta 20 daqiqa
3	O'tirgan holatda yelka usuliga kirib chiqish	O'ng	4 daq.dan 5 marta 20 daqiqa	4 daq.dan 5 marta 20 daqiqa	4 daq.dan 5 marta 20 daqiqa
		Chap	4 daqiqadan 5 marta 20 daqiqa	4 daq.dan 5 marta 20 daqiqa	4 daq.dan 5 marta 20 daqiqa
4	Raqibning qo'lidan hamda belbog'idan ushlagan holda Yonbosh usuliga kirib chiqish	O'ng	4 daq.dan 5 marta 20 daqiqa	4 daq.dan 5 marta 20 daqiqa	4 daq.dan 5 marta 20 daqiqa
